

TIL O'RGANISH VA XOTIRANI MUSTAHKAMLASH JARYONIDA ANTONIMLARNING AHAMIYATI MAQOLLAR MISOLIDA

*Ilmiy rahbar: NDPI ingliz tili va adabiyoti
fakulteti o'qituvchisi M.T. Gapparova
4-kurs talabasi Umarova Aziza*

Annotatsiya: Ushbu maqolada til o'rganuvchilarining lug'at boyligini kengaytirishda antonimlarning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Antonim so'zlarning xususiyatlari misollar orqali yoritib beriladi.

Tayanch tushunchalar: antonimlar, maqollar, til o'rganuvchilarining lug'at boyligi, qarilik, yoshlik

“Antonimlar (zid ma'noli so'zlar) — grekcha anti — „zid“, “qarama-qarshi” onoma yoki onyma — „nom“ degani bo'lib, qarama-qarshi tushunchalarni ifodalaydigan so'zlarga nisbatan ishlatiladi, ya'ni ma'no jihatdan bir-biriga zid bo'lgan so'zlar antonim deyiladi. Antonimik juft hosil bo'lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha ma'no jihatdan o'zaro qarama-qarshi bo'lishi kerak. Fe'llardagi bo'lishli-bo'lishsizlik xususiyati antonimlikni vujudga keltirmaydi.”[1] cDemak, antonimlar bir-biriga zid ma'noga ega bo'lgan so'zlar bo'lib, qarama-qarshi ma'noni ifodalash uchun foydalaniladi va biz ko'pincha antonimlarni maqollarda uchratamiz. Sababi shuki, maqollar ikki xil xarakter va xususiyat vakillarini ifodalashda keng qo'llaniladi.

“Eng avvalo, antonimlar so'z boyligini kengaytirish uchun zarurdir. Antonimlarni o'rganish orqali o'quvchilar so'z doirasini samarali ravishda ikki baravar oshirishlari mumkin. Masalan, “chiroyli” so'zini tushunganingizdan so'ng, uning antonimi “xunuk”ni bilish sizga butunlay yangi g'oyalar va tavsiflarni ifodalash imkonini beradi. Qanchalik ko'p antonimlarni o'rgansangiz, tilingiz shunchalik aniq va rang-barang bo'ladi. Bu ko'p qirralilik yozma va og'zaki muloqotda bebahodir.”[2]

Ushbu fikrlar orqali shuni ta'kidlash joizki, antonimlar orqali fikrimizni kengroq va ta'sirliroq ifodalay olamiz. Shu o'rinda nutqimizning bebaho boyligi hisoblangan so'zlarning bo'yoqdorligini oshirish uchun ham antonimlar kuchli qurol hisoblanadi.

Antonim so'zlar maqollarda ko'proq ishlatilishini ta'kidlagan edik va hozir maqollar asosida mustahkamlashimiz mumkin. “Yoshlikda bilgani-toshga yozgani”,

“Qarilikda bilgani-muzga yozgani”. Bu maqolda yoshlikda va qarilikda so'zlari bir biriga antonim bo'lib kelgan. Ikkala so'z ham bitta so'z turkumiga mansub, yosh va qari bir biriga antonim hisoblanadi. Toshga muzga so'zlari asli bir biriga antonim so'z emas ammo aynan maqol ichida bu ikki so'z bir-biriga antonim bulib kelgan. Tosh qattiq jism bo'lganligi uchun unga o'yib yozilgan so'z o'chmaydi, lekin muz eruvchan xususiyatga ega bo'lganligi uchun unga yozilgan bilim erib yo'qolar ma'nosida bir

biriga antonim bo'lib kelgan. "Kasal dardini sog' bilmas", "och qadrini to'q bilmas". Bu maqolda kasal va sog' bir biriga antonim hisoblanadi. Bu maqolda yana bir yashirin uslub mavjud. To'ldiruvchi egalik qo'shimchasi-i ni olganligi uchun undan oldingi so'zimiz ning qaratqich qo'shimchasini olish kerak lekin maqol yanada jozibador va qisqa bo'lishi uchun bu qo'shimcha tushirib qoldirilgan. Och va to'q so'zlari ham ma'no jihatdan ham konteks jihatdan bir biriga antonim hisoblanadi.

"Never put off until tomorrow what you can do today". Bu maqolda put off fraza va do so'zlari antonim hisoblanadi. Ikkalasi ham fe'l so'z turkumiga mansub va qarama qarshi ma'noni anglatgan. Lekin asli mano jihatdan bu ikkala so'z bir biriga antonim emas. Tomorrow va today so'zlari ham ma'no jihatdan bir biriga antonim ertaga va bugun.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish mumkinki, antonim so'zlarni o'rganish xotirani mustahkamlashga va so'zlarni tezroq yodda qoldirishga yordam beradi. Biz ko'pincha antonimlarni maqollar va badiiy asarlarda ko'p uchratamiz.

Malumki antonim so'zlar asosan sifat ravish va fe'l so'z turkumlarida ko'p uchraydi. Misol uchun keng-tor, chiroyli- hunik, qattiq-yumshoq va boshqalar, Bunday antonimlarni maqollarda qo'llash suhbatda etiborni tortadi. Antonimlarni maqollarda tahlil qiladigan bo'lsak so'zlar bir qator ma'nolarni qamrab olishini ko'rsatadi.

"Yaxshi oshini yer, Yomoni - boshini". Ba maqolda yaxshi va yomon so'zlari qarama qarshi bo'lib kelyotganini anglashimiz mumkin. Shuningdek sifatlar yordamida odamdagi hislatlar baholanayapti, Yaxshi so'zini talqin qilganimizda "yaxshi odam" "to'g'ri odam" ma'nosini jamlab kelyotganini va yomon so'zi anglatib kelyotgan tushunchaga qarama-qarshilik hosil qilayotganini ko'rishimiz mumkin. Tarixga nazar tashlar ekanmiz dunyo yaxshilik va yomonlik mezonlari ostiga qurilgan degan fikr olib borilgan ekanligini anglaymiz. Shuning uchun ham maqollarda yaxshilik va yomonlik mazmunidagi misollar talaygina. Millat tarixi qancha uzoqqa borib taqalsa, maqollar ham shuncha qadimiy. Maqollar azaldan mavjud va til bor ekan xalq bor ekan u ham shuncha uzoq yashab qolaveradi. Yillar davomida sayqallanib borayveradi.

"Jaxl-dushmuan aql-do'st" ushbu maqolda qadriyatimizga aylangan holatlarni yoki uming aksini ko'rishimiz mumkin. Antonim so'zlar sifatida dushman va do'st so'zlari qo'llanilgan. Do'st va dushman so'zlari asli ot so'z turkumiga tegishli bo'lib, maqolda antonim juttlikni hosil qilyapti, Xatti-harakati o'zaro to'g'ri kelmaydigam do'st va dushman so'zlari insonning harakteri bilan bog'lanib katta bir ma'noni yoritib beryapti. Asosan leksemaning ko'chma manosi ifodalangan bo'lib,

jaxl- g'azablanish hissiyoti-dushman ekanligi, aql-fikr yurutish-do'st insoniylik sifatlari bilan yoritilib berilyapti. Shuni takidlash kerakki do'st dushman so'zlari nutqimizda keng qo'llanilib, o'z va ko'chma ma'nolarida ham qarama-qarshilikni ifodalaydi.

"Uzoqdagi ovni ko'rib, yaqindagi yovni ko'rmas bo'lma" maqolida ham qadriyatga aylanib ketgan farosat bilan ish tutish, o'ylab qadam bosish, har bir qadamimizda ogoh bo'lishimiz kerakligi haqida yuritilgan. Uzoq-yaqin so'zlari o'zari bir gramatik turkumga mansub bo'lib, nutqda faol qo'llaniladigan antonim so'zlar hisoblanadi, Bu antonimlar ko'pincha: Uzoq yaqin - masofa, Uzoq yaqin-qarindoshchilik rishtalari ma'nosida qo'llaniladi. Ko'rinib turibdiki maqollar

qo'llanish doirasi uning nufazini, keng ma'noda qo'llanilishi uning kelajagini ko'rsatib beradi.

Xulosa qilib aytganda o'quvchilar tilni tezroq o'rganishda va xotirada ko'proq so'zlarni saqlab qolishda antonim so'zlardan foydalanishadi. Biz antonimlarni ko'pincha maqollarda uchratishimizni bildik va bu maqollarning mazmunini kengaytirishga yordamlashadi. Bu esa maqollarga e'tiborni kuchaytirishga yordamlashadi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Madalov, N. E (2020). Linguopsychological changes in an adult when learning a foreign language. ISJ Theoretical & Applied Science ,10 (90) -417-421
2. <https://www.wikipedia.org/>
3. <https://www.google.com/>